



## Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-avgust)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 8510,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 95,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (69,1 %) ni tashkil etdi.





## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida, sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 85,0 % ni, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida – 106,0 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 97,6 % ni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 44,1 % ni tashkil etdi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi**



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 930,0 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,9 % ini tashkil etdi.



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalaridan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**



Togʻ-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi boʻyicha oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan tabiiy gaz hajmi – 2,2 martani, gaz kondensati –118,4 % ni, neft qazib olish – 132,4 % ni, qum – 94,7 % ni va chaqir tosh – 118,5 % ni tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-avgust	2020-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
<b>Qum, ming t.</b>	77,4	73,3	-4,1
<b>Neft, ming t.</b>	14,3	18,9	4,6
<b>Tabiiy gaz, mln. kub.m.</b>	750,1	1664,1	914,0
<b>Gaz kondensati, ming t.</b>	152,4	180,54	28,14
<b>Chaqiq tosh, ming t.</b>	100,1	118,5	18,4



**Ishlab chiqaradigan sanoat**



2020-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5880,8 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 69,1 % ini tashkil etdi.


**2019- yil,  
% da**

**2020- yil,  
% da**

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi  
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,1 % ni (2019-yil yanvar-avgust oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 32,4 % (28,1 %), o'rta – quyi texnologiyali – 5,4 (6,6 %), va quyi texnologiyali – 62,1 (65,1 %) tashkil etdi.

2019-yil  
yanvar-avgust, % da



yuqori texnologiyali   
o'rta-yuqori texnologiyali 


2020-yil  
yanvar-avgust, % da



quyi texnologiyali   
o'rta-quyi texnologiyali 



### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati






O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan yumshoq bug'doy va spelta uni – 112,9 % ni, plastmassa quvurlar – 107,0 % ni, kaliy xlorid – 100,2 % ni, polietilen – 102,8 % ni, ip-kalava – 95,7 % ni, paxta tolasi – 72,3 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-avgust	2020-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	90,9	102,5	11,6
Plastmass quvurlari, mingt.	2,8	3,3	0,5
polietilen, mingt.	87,9	90,4	2,5
kaliy xlorid, ming t.	132,0	132,3	0,3
Ip-kalava, ming t.	15,9	18,8	2,9
Paxta tolasi, ming t.	30,1	20,1	-10,0



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1648,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (19,4 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 97,6 % tashkil etdi.






**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-avgust	2020-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln. kVt/s	8546,1	6468,7	-2077,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2436,4	2055,9	-380,5



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.





**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-avgust	2020-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	4904,4	439,6	-4464,8
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	12615,3	21985,1	9369,8
Qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	10563,0	13764,5	3201,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 130,3 % ga, hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 174,3 % ga oshganligi kuzatildi, shuningdek, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 9,0 % ga pasayishi kuzatildi.




**Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2528,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 97,5 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 29,7 % ni tashkil etdi.



2020-yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 59,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 40,2 %, va oziq-ovqat, mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 2,2 % ni tashkil etdi.



**2020-yilning yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Jami sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmidan G`uzor tumani 1511,8 mlrd. so`mni, Nishon tumani 1488,8 mlrd. so`m, Qarshi shahri 1396,3 mlrd. so`mni tashkil etdi.

	2020-yil yanvar-avgust mlrd. so`m	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>8510,7</b>	<b>95,1</b>
<b>Qarshi sh.</b>	1618,6	98,7
<b>Shahrisabz sh.</b>	164,8	98,6
<i>tumanlar:</i>		
<b>G'uzor</b>	1760,0	101,1
<b>Dehqonobod</b>	338,8	94,8




	<b>2020-yil yanvar-avgust mlrd. so'm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Qamashi</b>	234,7	112,4
<b>Qarshi t.</b>	393,5	77,0
<b>Koson</b>	423,0	95,0
<b>Kitob</b>	194,6	101,4
<b>Mirishkor</b>	189,4	100,6
<b>Muborak</b>	401,8	77,5
<b>Nishon</b>	1793,1	93,6
<b>Kasbi</b>	189,4	110,0
<b>Chiroqchi</b>	175,5	106,0
<b>Shahrisabz t.</b>	355,2	101,1
<b>Yakkabog'</b>	278,3	101,1

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida Qamashi tumanida (2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 112,4 %), Kasbi tumanida (110,0 %), Chiroqchi tumanida (106,0 %), Kitob tumanida (101,4 %), G`uzor tumanida ( 101,1 %), Shahrisabz tumanida (101,1%), Yakkabog' tumanida (101,1 %), va Mirishkor tumanida (100,6 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.



**Qashqadaryo viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Nishon tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 21,1 %), G'uzor tumani (20,7 %), Qarshi shahriga (19,0 %), Koson (5,0 %) hamda Qarshi tumanlariga (4,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Eng past ko'rsatkich esa Shahrisabz shahri (1,9 %) hamda Chiroqchi (2,0 %) va Mirishkor tumaniga (2,2 %) to'g'ri kelmoqda.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2020-yilning yanvar-avgust oylarida)**



	mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>2528,5</b>	<b>100,0</b>	<b>97,5</b>
<b>Qarshi sh.</b>	<b>793,4</b>	<b>31,4</b>	<b>94,8</b>

<b>Shahrisabz sh.</b>	147,1	5,8	95,2
<i>tumanlar:</i>			
<b>G'uzor</b>	68,0	2,7	96,5
<b>Dehqonobod</b>	41,7	1,6	98,2
<b>Qamashi</b>	126,1	5,0	98,6
<b>Qarshi t.</b>	116,3	4,6	98,8
<b>Koson</b>	231,0	9,1	95,4
<b>Kitob</b>	153,6	6,1	98,4
<b>Mirishkor</b>	61,8	2,4	98,9
<b>Muborak</b>	57,9	2,3	97,6
<b>Nishon</b>	64,2	2,5	97,4
<b>Kasbi</b>	57,0	2,3	84,9
<b>Chiroqchi</b>	144,5	5,7	98,9
<b>Shahrisabz t.</b>	241,8	9,6	98,7
<b>Yakkabog'</b>	224,4	8,9	111,9

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o`shish sur'atida eng yuqori ko`rsatkich Yakkabog' tumanida (2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 111,9 %), Chiroqchi , Mirishkor tumanlarda mos ravishda (98,9 %), Qarshi tumanida (98,8 % ni), Shahrisabz tumanida (98,7 %), Qamashi tumanida (98,6 %), va eng kam ko`rsatkich Kasbi tumanida (84,9 %), ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shahri (iste'mol tovarlari hajmida 31,4 %) ni, Shahrisabz tumanida (9,6 %) ni, Yakkabog' tumanida (8,9 %),ni Koson tumanida (8,6 %) ni va Kitob tumanida (6,1 %) ni tashkil etadi.

<b>Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da</b>
----------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------



	<b>Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish</b>
-------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1267,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 14,9 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Nishon tumanida (11711,8 ming so'm), G`uzor tumanida (8614,8 ming so'm), Qarshi shahrida (5864,3 ming so'm), Muborak tumanida (4618,5 ming so'm) va o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (viloyat – 2586,3 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
(2020-yil yanvar-avgust oylarida, ming so'm)**

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	2586,3	768,4
<b>Qarshi sh.</b>	5864,3	2874,5
<b>Shahrisabz sh.</b>	1187,2	1055,7
<i>tumanlar:</i>		
<b>G'uzor</b>	8614,8	333,0
<b>Dehqonobod</b>	2297,2	282,6
<b>Qamashi</b>	864,0	464,1
<b>Qarshi</b>	1584,2	468,1
<b>Koson</b>	1480,6	808,5
<b>Kitob</b>	738,1	582,6
<b>Mirishkor</b>	1583,6	516,7
<b>Muborak</b>	4618,5	665,3
<b>Nishon</b>	11711,8	419,1
<b>Kasbi</b>	963,1	289,8
<b>Chiroqchi</b>	425,3	350,1
<b>Shahrisabz</b>	1600,8	1089,6
<b>Yakkabog'</b>	1057,0	852,1



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi  
(2020-yil yanvar-avgust oylarida, % da)**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2592,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 30,5 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Qamashi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kitob tumanida (95,2 %), Chiroqchi tumanida (84,3 %), Shahrisabz shahrida (81,6 %), Yakkabog' tumanida (73,8 %), shu bilan birga, eng kichkina ulush Nishon tumanida (3,6 %), G'uzor tumanida (4,3 %), Dehqonobod tumanida (11,7 %) va Muborak tumanida (14,0 %) kuzatildi.




**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi  
tashkil etilgan sanoat korxonalari  
(2020-yil 1-sentyabr holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda viloyatda 3727 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 733 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 19,7 %) Qarshi shahriga, 436 tasi (11,7 %), Kitob tumaniga, 333 tasi (9,0 %) Yakkabog' tumaniga, 322 tasi (8,6 %) Shahrisabz shahriga, 307 tasi (8,2 %) Chiroqchi tumaniga, 277 tasi (7,4 %) Qarshi tumaniga, 209 tasi (5,6 %) Qamashi tumaniga to'g'ri kelmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda**



**Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda**



2020-yil yanvar-avgust oylarida viloyatda 590 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 101 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 17,1 %) Qarshi shahrida, 60 tasi (10,2 %) Chiroqchi tumanida, 60 tasi (10,2 %) Kitob tumanida, 50 tasi (8,5 %) Yakkabog` tumanida, 45 tasi (7,6 %) Shahrisabz shahrida, 34 ta (5,7 %) Qarshi tumanida hamda Shahrisabz tumanida, 34 tasi (5,7 %) tashkil etildi.

**Sanoat statistikasi**

